

**O'ZBEKISTONNING MARKAZIY OSIYODA MINTAQAVIY
XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDAGI O'RNI**

**РОЛЬ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

**UZBEKISTAN'S ROLE IN ENSURING REGIONAL SECURITY IN
CENTRAL ASIA**

Mahmudov Asqarali G'ayratjon og'li.

JIDU magistratura talabasi

E-mail: Madaliyev03@gmail.com

Telefon: +998(97) 335-03-03

Аннотация: В данной статье анализируется роль Узбекистана в обеспечении региональной безопасности в Центральной Азии. Освещается военно-политическая стратегия Узбекистана, его сотрудничество с региональными и международными организациями. Также рассматриваются процессы военной модернизации страны и сотрудничество с соседними государствами в сфере безопасности. В статье обсуждаются инициативы Узбекистана по укреплению региональной безопасности и их перспективы.

Ключевые слова: Центральная Азия, региональное сотрудничество, теория Хартленда, концепция внешней политики Узбекистана, geopolitika, оборонная доктрина.

Abstract: This article analyzes Uzbekistan's role in ensuring regional security in Central Asia. It highlights the country's military-political strategy and its cooperation with regional and international organizations. The paper also examines the military modernization process and Uzbekistan's security cooperation with neighboring countries. The article discusses Uzbekistan's initiatives to strengthen regional security and their prospects.

Keywords: Central Asia, regional cooperation, Heartland theory, Uzbekistan's foreign policy concept, geopolitics, defense doctrine.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Unda O'zbekistonning harbiy-siyosiy strategiyasi, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi yoritilgan. Shuningdek, mamlakatning harbiy modernizatsiya jarayoni va qo'shni davlatlar bilan xavfsizlik bo'yicha hamkorligi tahlil qilinadi. Maqlada O'zbekistonning mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash yo'lidagi tashabbuslari va ularning istiqbollari muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy hamkorlik, Heartland nazariyasi, O‘zbekiston tashqi siyosati konsepsiysi, geosiyosat, mudofaa doktrinasi.

Kirish: Markaziy Osiyo mintaqasi geosiyosiy va xavfsizlik nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanadi. O‘zbekiston mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashda faol tashqi siyosat yuritib kelmoqda. Xususan, 2017-yildan Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida o‘zaro ishonchga asoslangan holda amalga oshirilayotgan islohotlarning mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda o‘rni beqiyos.

Metodologiya: Mazkur taddiqotda Markaziy Osiyo mintaqasidagi xavfsizlik transformatsiyasini tahlil qilish uchun turli taddiqot usullaridan foydalanildi. Xususan: **Qiyosiy tahlil** (mintaqa davlatlarining siyosiy-harbiy strategiyalarini taqqoslash), **diskurs tahlili** (xavfsizlik bo‘yicha rasmiy nutqlar, konsepsiylar, doktrinalarni tahlil qilish), **sistemali yondashuv** (xavfsizlik muhitini mintaqaviy va global komponentlar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqish), **Kontent analiz** va b.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki:

- O‘zbekiston mintaqaviy xavfsizlikda yetakchi rol o‘ynaydi.
- Geosiyosiy joylashuv, demografik salohiyat, tabiiy resurslar, harbiy qudrat kabi omillar O‘zbekistonning ahamiyatini oshirmoqda.
- Mintaqaviy muammolarni hal etishda O‘zbekiston tashabbuskor bo‘lib kelmoqda.

Asosiy qism: O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillika erishgandan boshlab milliy manfaatlar asosida mustaqil tashqi siyosat yuritish tarafdori ekanligini namoyon etib kelmoqda. Bu yo‘lda hozirgacha ishlar jadal amalga oshirilmoqda. Bizga yaxshi ma’lumki xoh iqtisodiy bolsin, xoh siyosiy jihatdan yuksalish uchun albatta davlatga uning qoshnilarining ham ta’siri mavjud. Shuningdek O‘zbekiston rivojlanishida ham chegaradosh davlatlarning ahamiyati yuksak. Bu allaqachon mamlakatimiz rahbarlari tomonidan anglab yetilgan bo‘lib, 2012-yil 12-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Tashqi siyosiy faoliyatini konsepsiysi to‘g‘risidagi” qonunda O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining ustuvor yo‘nalishi Markaziy Osiyo mintaqasi ekanligi belgilab qoyilgan. Shuningdek 2017-yildan mamlakatimiz prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan tashqi siyosatning eng ustuvor yo‘nalishi sifatida avvalo Markaziy Osiyo mintaqasi ko‘rsatilganligi bejiz emas. Xususan, 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan “2017–2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish bo‘yicha **“Harakatlar strategiyasi”**ning [1] “Chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar”i bayon etilgan **5.2-bandida** aynan tashqi siyosat masalasida – “O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo‘sningchilik muhitini shakllantirish” tamoyili o‘z aksini topgan. Buning dalili sifatida

oxirgi yillarda Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik jabhasida yuz berayotgan ijobjiy o'zgarishlar, Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi mavjud muammolar astasekin kamayib borayotgani bevosita O'zbekistonning bu boradagi faolligi va tashabbuslari bilan chambarchas bog'liq. Mamlakatimiz olib borayotgan pragmatik tashqi siyosat natijasida mintaqaviy hamkorlik mustahkamlanib, ishonch muhitini shakllantirishga erishilmoqda. O'zbekiston geosiyosatining amaliy ifodasi sifatida bir qator mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi muhim tashabbuslarni keltirish mumkin:

- Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari;
- "Markaziy Osiyo: Yagona tarix va umumiyligi kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi Samarqand xalqaro konferensiyasi;[2]
- "Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik" mavzusidagi Afg'oniston bo'yicha Toshkent xalqaro konferensiyasi.

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O'RQ-458-son "O'zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi to'g'risida"gi Qonunida [3] mudofaa sohasidagi mamlakat siyosati belgilangan bo'lib. Ushbu qonunning 9-bandida O'zbekiston Respublikasining mudofaa sohasidagi siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida Markaziy Osiyoda xalqaro va mintaqaviy hamkorlikni, xavfsizlikni, barqarorlikni va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlashning belgilanganligi ham mamlakatimiz rivoji, tashqi siyosati birinchi navbatda Markaziy Osiyo bilan bog'liq ekanligini anglatadi.

Mintaqada qabul qilinadigan yirik geosiyosiy qarorlarni O'zbekistonsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridan farqli O'zbekiston yirik kuch markazlarining bevosita ta'siridan **tabiiy** muhofazalangan. O'zbekiston mintaqada Rossiya, Xitoy, Eron singari kuch markazlari bilan bevosita chegaraga ega emas. Markaziy Osiyo mintaqaviy rivojida "O'zbekistonning o'rni" – bu O'zbekistonning mintaqaviy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'ziga xos imkoniyati, salohiyati va faoliyatini tushunish mumkin. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Demografik omil: O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik aholi soniga ega davlat bo'lib, bugungi kunda uning aholisi **36 million** nafardan oshgan. Ushbu ko'rsatkich Markaziy Osiyoning umumiyligi aholisi qariyb **80 million** kishini tashkil etishini hisobga olsak qariyb yarmini tashkil etadi.[4] Statistikalarga ko'ra O'zbekiston aholisi nafaqat Markaziy Osiyo, balki MDH makonida ham eng tez o'sayotgan davlatlardan biri bo'lib, yaqin kelajakda postsoviet hududida Rossiyadan keyingi ikkinchi o'rinni egallashi mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng **ko'p millatli** davlatlardan biri hisoblanadi. Bunda aholining milliy tarkibida o'zbeklar asosiy ulushni tashkil etsada, mamlakatda turli etnik guruhlar ham istiqomat qiladi. O'zbekistonning demografik salohiyatining yana bir o'ziga xos jihatni shundaki, u mintaqaga davlatlaridan farqli

ravishda nisbatan bir xil gegemon aholi tarkibiga ega bo‘lib, aholining 85% dan ortig‘ini o‘zbeklar tashkil etadi. Umuman olganda, o‘zbeklar Markaziy Osiyodagi eng yirik millat bo‘lib, bu holat O‘zbekistonning mintaqaviy jarayonlardagi rolini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Geografik omil va geosiyosiy yadro sifatida: Geostrategik jihatdan qulay joylashuvi sababli O‘zbekiston Markaziy Osiyoning **geosiyosiy yadrosidir**. Mamlakat umumiyl maydoni 448,9 ming kv.kmni tashkil etib, uning beshdan to‘rt qismi tekisliklardan iborat.

Sharqiy va janubi-sharqiy hududlarda Tyan-Shan, Oloy, Zarafshon, Turkiston va Hisor tog‘lari joylashgan bo‘lib, ularning etaklarida Farg‘ona, Kitob-Shahrisabz, Surxon-Sherobod, Zarafshon, Chirchiq-Ohangaron vodiylari shakllangan. Ushbu vodiylar sug‘oriladigan unumdar yerlarga boy bo‘lib, aholining katta qismi aynan shu mintaqalarda yashaydi. Agrar sektor uchun juda qulay sharoit yaratuvchi bu hududlar O‘zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy mustahkamligi uchun strategik ahamiyatga ega.

Geosiyosatdagi mashhur Xelford J. Makkinderning “**Heartland**” [5] nazariyasiga ko‘ra, Markaziy Osiyo butun dunyo geosiyosiy tizimining markaziy yadrosi hisoblanadi. Ushbu nazariya nuqtai nazaridan, Markaziy Osiyoning “**heartland**”i aynan O‘zbekiston bo‘lib, u mintaqaning geosiyosiy jihatdan eng muhim davlati sanaladi. Shu boisdan, mamlakat poytaxti Toshkent ko‘p hollarda “Sharq darvozasi” deb ta’riflanadi. Taniqli siyosatshunos va diplomat S. Safoyev bu borada shunday fikr bildiradi:

“O‘zbekiston Markaziy Osiyoning boshqa davlatlaridan farqli o‘laroq, jahon miqyosidagi yoki mintaqaviy yirik davlatlarning hech biri bilan bevosita chegaradosh emas. Geosiyosiy jihatdan bu, shubhasiz, ustunlik sanaladi.”[6]

Shuningdek O‘zbekiston tranzit yo‘llari chorrahasida joylashgan. O‘zbekiston Yevropani Osiyo, Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo, Uzoq Sharqni Yaqin Sharq bilan bog‘lash mumkin bo‘lgan transport – kammunikatsiya yo‘laklarining muhim halqasidir.[7]

Bu omil O‘zbekistonning mintaqadagi strategik pozitsiyasini yanada mustahkamlab, unga tashqi siyosatda muvozanatni saqlash va mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynash imkoniyatini beradi.

Harbiy qudrat va mintaqaviy xavfsizlik omili: O‘zbekiston Markaziy Osiyoda eng kuchli harbiy salohiyatga ega davlat hisoblanadi. **Global Firepower** saytining 2025-yilgi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekiston **145 davlat** orasida **58-o‘rinni** egalladi.[8] GFP (Global Firepower) O‘zbekistonning mudofaa byudjetini **796 million** dollar deb baholagan bo‘lsa-da, ba’zi manbalarda aslida mamlakat mudofaa budgeti 3 milliard dollarga baholanadi.

Tarixiy omillar: O‘zbekiston hududi asrlar davomida buyuk **sivilizatsiyalar** va **imperiyalar beshigi** bo‘lib kelgan. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent va boshqa qadimiylar nafaqat Markaziy Osiyoning, balki butun mintaqaning siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlari sifatida shakllangan.

Mashhur siyosatshunos **Z. Bzejinskiy** ham O‘zbekistonning ushbu tarixiy nufuzi va mintaqadagi yetakchilik salohiyatiga alohida urg‘u berib, shunday degan edi: “Amaliy jihatdan O‘zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy yetakchilik roliga **asosiy da’vogar** hisoblanadi. Uning siyosiy elitasi yangi davlatni buyuk Temur sultanati vorisi sifatida ko‘radi, Samarqand esa o‘sha davrda din, astronomiya va san’at markazi bo‘lgan. Bu tarixiy meros O‘zbekistonning qo‘shni davlatlarga nisbatan o‘zligini chuqur anglashiga hamda diniy va madaniy an’analarga sodiqligini mustahkamlashiga xizmat qiladi.”[9]

O‘zbekistonning tarixiy tajribasi va boy merosi bugungi kunda ham uning mintaqaviy siyosatidagi o‘rnini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonning Savdo-iqtisodiy Salohiyati va Tabiiy Resurslari: O‘zbekiston Markaziy Osiyoning eng yirik bozori bo‘lib, qulay geostrategik joylashuvi tufayli mintaqaviy iqtisodiyotda muhim o‘rin tutadi. Britaniyaning nufuzli *The Economist* jurnali **2019-yilda** mamlakatni **“Yil davlati”** deb e’tirof etgan bo‘lsa, Juhon banki O‘zbekistonni Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyodagi eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyotlardan biri sifatida ko‘rsatgan.

Tabiiy-xomashyo resurslari: O‘zbekiston ulkan **tabiiy boyliklarga** ega bo‘lib, **3000** dan ortiq foydali qazilma konlari aniqlangan, ulardan **1100** tasi foydalanishga tayyor. Xususan:

- **Oltin** zaxiralari bo‘yicha jahonda **4-o‘rin**, qazib olish bo‘yicha **9-o‘rin**.
- **Mis** qazib olish bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchi.
- **Uran** zaxiralari bo‘yicha jahonda **7-8-o‘rin**.
- **Neft** va **gaz sanoati** rivojlangan, **86** ta sanoat ahamiyatiga ega neft koni mavjud.

Yuqoridagi qayd etilganlar O‘zbekistonning mintaqaviy siyosatidagi o‘rnini belgilab beruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Xulosa: Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, O‘zbekiston Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda yetakchi va muhim o‘ringa ega davlat hisoblanadi. Mamlakatnin tashqi siyosat yo‘lida mintaqaviy hamkorlikka tayangan yondashuvi, xalqaro hamda mintaqaviy tashkilotlar bilan faol aloqalari ushbu o‘rinni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Geosiyosiy, demografik, iqtisodiy, harbiy va tarixiy omillar O‘zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik tizimidagi strategik salohiyatini mustahkalamoqda. 2017-yildan boshlab olib borilayotgan pragmatik tashqi siyosat mintaqada ishonch

muhitini shakllantirish, muammolarni muzokara yo‘li bilan hal etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekistonning “Heartland”da joylashganligi, boy tabiiy resurslari, demografik xususiyatlari va madaniy-huquqiy merosi uni nafaqat mintaqaning barqaror taraqqiyoti uchun, balki global xavfsizlik tizimi uchun ham ahamiyatli o‘yinchiga aylantiradi. Mintaqaviy masalalarни bevosa hal etishda O‘zbekiston ishtirokisiz hech bir geosiyosiy tashabbus samara bermasligi tobora yaqqol ko‘rinib bormoqda.

Shunday qilib, O‘zbekistonning Markaziy Osiyodagi mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashdagi o‘rni – bu nafaqat mavjud real voqelik, balki xalqaro miqyosda tobora ortib borayotgan e’tirof va strategik ehtiyojdir. Kelajakda ushbu o‘rinni mustahkamlash uchun mamlakat tashqi siyosatining izchil va barqaror olib borilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/mact/-3107036>
2. <https://president.uz/oz/lists/view/1227>
3. <https://lex.uz/mact/-3495885>
4. <https://www.worldometers.info/world-population/central-asia-population/>
5. <https://www.silkroadstudies.org/resources/pdf/Monographs/1006Rethinking-4.pdf>
6. S. Safoev. **Markaziy Osiyodagi geosiyosat.** - T.: JIDU, 2005.-31-b.
7. S. Bo‘ronov **O‘zbekiston Geosiyosati** – T.: O‘zbekiston, 2021;
8. https://www.globalfirepower.com/country-military-strength-detail.php?country_id=uzbekistan
9. Zbigniew Brzezinski, *The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives*, New York: Basic Books, 1997.